
BOLAJONLARGA BAYRAM SOVG'ALARI ULASHILDI

Yangi yil bayramini har yili bolajonlar intiqlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, bu bayram bolajonlarga katta quvonch ulashadi. Axir bu kunda ular bolalik atalmish ertakning bosh qahramoni - Qorbobo bilan uchrashadi-da!



Aynan ana shunday ertakmonand bayram kunlari arafasida Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikov tuman IIB boshlig'i S.Abdullayev va "FERGANA GLOBAL TEXTILE" MCHJ rahbari M.Razzoqovlar bilan hamkorlikda tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 34 va 24-umumta'lim maktablarining filialida bo'ldilar.



Tuman hokimi eng avvalo maktablarda o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Undan so'ng ushbu maktablardagi bolajonlarga yangi yil bayrami munosabati bilan sovg'alar ulashildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-23 16:23:44